



## 2020- yilning yanvar-sentabr oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **2912,9** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **101,2 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni,  
2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2,3 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 mingtaga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **100,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **60,0 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **114,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **112,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **31,1 %**) o'sishidir.



**Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.10.2019- yil	01.10.2020- yil	
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2145</b>	<b>2253</b>	<b>105,0</b>
Nukus sh.	1109	1120	101,0
tumanlar			
Amudaryo	62	59	95,2
Beruniy	103	109	105,8
Bo'zotov	-	17	-
Qorao`zak	33	38	115,2
Kegeyli	50	52	104,0
Qo'ng'iro't	85	100	117,6
Qonliko'l	38	34	89,5
Mo'ynoq	33	44	133,3
Nukus	81	92	113,6
Taxiatosh	60	75	125,0
Taxtakopir	25	25	100,0
To'rtko'l	164	182	111,0
Xo'jayli	103	116	112,6
Chimboy	49	48	98,0
Shumanoy	43	43	100,0
Ellikqal`a	107	99	92,5


**Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan  
01.10.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



**Ma'lumot uchun:** Respublikada soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Nukus sh. (49,7%), To'rtko'l tumani (8,1 %) va Xo'jayli (5,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **217,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **69,8** % ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **3,3** % punktga kamayib, **7,4** % ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qo'ng'iro't tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **33,3 %** i yoki 2019- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **56,4 %**), Taxiatosh tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **29,7 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **68,1 %**) va Kegeyli tumani (jami qurilish ishlari hajmining **18,5 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **96,6 %**) ga to'g'ri keldi.




### Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 77,6 % i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 11,1 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,7 % ni tashkil etgan holda 2260,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 15,0 % ni tashkil etdi yoki 435,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 67,9 % ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **159,5** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2753,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **5,5 %** va **94,5 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi 2020- yil yanvar-sentabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 60,4 % i yoki **1759,7** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**60,4 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **116,6** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **53,8 %** ni tashkil etdi.

**53,8 %**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1253,7** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **55,5 %** ni tashkil etdi.

**55,5 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **389,4** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **89,4 %** ni tashkil etdi.

**89,4 %**






2020- yilning yanvar-sentabr oylarida  
shahar va tumanlar kesimidagi qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	2912,9	101,2	100,0
<b>Nukus sh.</b>	994,0	97,4	34,1
<b>tumanlar:</b>			
Amudaryo	117,3	118,6	4,0
Beruniy	178,6	102,7	6,1
Bo'zotov	20,5	235,0	0,7
Qorao`zak	38,8	100,6	1,3
Kegeyli	60,3	104,8	2,1
Qo'ng'iro't	275,0	101,6	9,5
Qonliko'l	67,8	107,1	2,3
Mo'ynoq	130,5	100,7	4,5
Nukus	153,8	100,5	5,3
Taxiatosh	128,4	100,4	4,4
Taxtako'pir	76,4	121,9	2,6
To'rtko'l	272,8	107,0	9,4
Xo'jayli	185,8	90,5	6,4
Chimboy	43,6	101,2	1,5
Shumanoy	37,0	100,4	1,3
Ellikqal`a	132,3	100,6	4,5

Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




## Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **2,8 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,1 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **9,8 %** punktga ko'payib, **75,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **11,9 %** punktga kamayib, **22,0 %** ni tashkil etdi.

*ulushi, % da*






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **19,5 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **14,2 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **80,5 %** (**14,2 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **13,6 %** punktga kamaydi va **15,3 %** ni tashkil etdi. Qolgan **84,7 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **13,6 %** punktga ko'paydi.

ulushi, % da






**Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar  
kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-sentabr oylarida**

*mlrd. so'm*

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2912,9</b>	<b>217,0</b>	<b>2260,1</b>	<b>435,8</b>
<b>Nukus sh. tumanlar</b>	<b>994,0</b>	<b>33,5</b>	<b>926,5</b>	<b>34,0</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>117,3</b>	<b>8,2</b>	<b>62,7</b>	<b>46,4</b>
<b>Beruniy</b>	<b>178,6</b>	<b>-</b>	<b>95,9</b>	<b>82,7</b>
<b>Bo'zotov</b>	<b>20,5</b>	<b>3,2</b>	<b>14,3</b>	<b>3,0</b>
<b>Qoraol'moq</b>	<b>38,8</b>	<b>0,1</b>	<b>32,6</b>	<b>6,1</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>60,3</b>	<b>11,2</b>	<b>39,5</b>	<b>9,6</b>
<b>Qo'ng'iro't</b>	<b>275,0</b>	<b>91,4</b>	<b>162,9</b>	<b>20,7</b>
<b>Qonliqo'l</b>	<b>67,8</b>	<b>-</b>	<b>42,0</b>	<b>25,8</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>130,5</b>	<b>-</b>	<b>120,0</b>	<b>10,5</b>
<b>Nukus</b>	<b>153,8</b>	<b>0,5</b>	<b>114,7</b>	<b>38,6</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>128,4</b>	<b>38,1</b>	<b>71,9</b>	<b>18,4</b>
<b>Taxtakopir</b>	<b>76,4</b>	<b>0,5</b>	<b>71,2</b>	<b>4,7</b>
<b>To'rtko'l</b>	<b>272,8</b>	<b>0,9</b>	<b>196,4</b>	<b>75,5</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>185,8</b>	<b>16,1</b>	<b>149,1</b>	<b>20,6</b>
<b>Chimboy</b>	<b>43,6</b>	<b>3,2</b>	<b>33,0</b>	<b>7,4</b>
<b>Shumanoy</b>	<b>37,0</b>	<b>-</b>	<b>28,9</b>	<b>8,1</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>132,3</b>	<b>10,1</b>	<b>98,5</b>	<b>23,7</b>

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida  
shahar va tumanlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus sh. (994,0 mlrd. so'm) Qo'ng'iro't (275,0 mlrd. so'm), To'rtko'l (272,8 mlrd. so'm) va Xo'jayli (185,8 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.



# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika  
boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni: (61) 224-92-14

(61) 222-75-91